UO‘K 28-284:28-262:331

MEHNATGA DOIR FALSAFIY QARASHLAR TARAQQIYOTI

(*birinchi maqola*)

D.A. Sobirov

Maqolada mehnat tushunchasining falsafiy mazmuni o‘rganilgan. Mehnatning ijtimoiy ong shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni hamda ahamiyati tadqiq etilgan. Mehnat tushunchasining qadimgi yunon va Sharq falsafasidagi talqinlari tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat tushunchasining falsafiy mazmunidagi o‘zgarishlar tadriji ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mehnat va mehnat munosabatlarining ontologik, aksiologik va epistemiologik jihatlariga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: *inson, mehnat tushunchasi, falsafiy tafakkur, yunon falsafasida mehnat, Sharq falsafasida mehnat, mehnat munosabatlari.*

В статье изучено философское содержание понятия труда. Исследованы роль и значение труда в формировании и развитии общественного сознания. Проанализированы трактовки понятия труда в древнегреческой и восточной философии. Кроме того, рассмотрена эволюция философского содержания понятия труда, уделено внимание онтологическим, аксиологическим и эпистемологическим аспектам труда и трудовых отношений.

Ключевые слова*: человек, концепция труда, философская мысль, труд в греческой философии, труд в восточной философии, трудовые отношения.*

Kirish

Mehnat insonning eng qadimiy va asosiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, uning falsafiy tahlili uzoq asrlik tarixga ega. Bu mavzu o‘z ichiga inson hayotining nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy sohalarini ham qamrab oladi. Mehnatga oid falsafiy qarashlar muttasil ravishda o‘zgarib, rivojlanib kelgan. Ayniqsa, iqtisodiy tengsizliklar, texnologik o‘zgarishlar va jamiyatdagi mehnatga bo‘lgan yondashuvlar mehnatga oid falsafiy qarashlarga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi.

Shu bilan birga, mehnat – insonning o‘zini anglashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va mavjudlikni mazmun bilan to‘ldirishi yo‘lidagi asosiy vositalardan biri. Falsafa uchun mehnat faqat moddiy ne’mat yaratish jarayoni emas, balki insoniy mohiyatning ifodasidir. U orqali inson tabiiy muhitni o‘zgartiradi, o‘zini shakllantiradi va jamiyatni rivojlantiradi.

Bugungi global muhitda mehnatga bo‘lgan yondashuvlar yangilanmoqda. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, masofaviy ish va avtomatlashtirish sharoitida mehnat nafaqat iqtisodiy, balki ekzistensial savollarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli mehnatning falsafiy tahlili uning tarixiy ildizlaridan boshlab zamonaviy muammolarigacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda mehnat tushunchasining falsafiy mazmunini tahlil qilishda tarixiy-falsafiy, aksiologik va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-falsafiy metod mehnat tushunchasining qadimgi davrdan zamonaviy falsafagacha bo‘lgan evolyutsiyasini o‘rganishga imkon beradi. Aksiologik yondashuv mehnatning inson hayotidagi qadriyat sifatidagi o‘rnini ochib beradi. Taqqoslash tahlil usuli orqali Sharq va G‘arb faylasuflari qarashlari o‘zaro taqqoslandi. Mehnatning inson qadri, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy kamolotidagi o‘rni qadimgi manbalardan “Avesto”, qadimgi xitoy faylasuflaridan Kun Szi va Lao Szi qarashlari, jahon dinlari manbalaridan “Qur’oni karim” va hadisi shariflar, shuningdek, Aflotun, Arastu va Sitseron kabi olimlarning asarlari asosida tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Falsafa tarixida mehnatning o‘rniga turli falsafiy maktablar tomonidan alohida e’tibor qaratilgan. Klassik yunon falsafasida, ayniqsa, Suqrot, Arastu, Aflotun mehnatni iqtisodiy faoliyat sifatida ko‘rib, uni ozod va o‘zgaruvchan jamoa a’zolarining jamiyatdagi faoliyati bilan bog‘lagan. Qadimgi Sharq faylasuflari Kun Szi va Lao Szi insonning mehnatga bo‘lgan munosabatini ayni paytda tabiatga bo‘lgan munosabatlar bilan uyg‘un holda talqin qilgan. Islom diniga oid qarashlarda mehnat insoniy fazilat, axloqiy tarbiya va Yaratganning insonga bergan ne’mati bo‘lib, mehnat munosabatlari ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Yangi davr falsafasida esa mehnatning axloqiy jihatlari va inson o‘zligini anglashida mehnatning roli masalalari ko‘tarilgan. Jumladan, Karl Marksning mehnat haqidagi qarashlari uni jamiyatdagi sinfiy tizim va iqtisodiy tuzilmaning asosiy komponenti sifatida ko‘rsatsa, Maks Veber va Georg Zimmel mehnatning kapitalizm rivojidagi o‘rnini tahlil qilgan.

Zamonaviy falsafada mehnatning sharoit va qadriyatlari o‘zgarayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, XXI asrda texnologik taraqqiyot va avtomatlashtirish jarayonlari ish o‘rinlarini qisqartirish, ishchilarning roli va ahamiyatini o‘zgartirish bilan birga, mehnatga bo‘lgan yondashuvni yanada murakkablashtirdi. Bugungi kunda mehnatning “inqirozi” masalasi ko‘plab olimlar va falsafiy tahlilchilar tomonidan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar kontekstida chuqur ilmiy tahlil etilmoqda. Iqtisodiy tengsizliklar, texnologik avtomatlashtirishning ish o‘rinlariga ta’siri, ishchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari, ayni paytda, noroziligi kabi omillar mehnatning shartlari va qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, mehnatning yangi shakllari, masalan, masofaviy ish, “freelans” va qisqa muddatli kontraktlar kabi yangi iqtisodiy-ijtimoiy shakllar zamonaviy jamiyatdagi mehnatning o‘rnini va ahamiyatini o‘zgartirdi. Bu jarayonlar mehnatga nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki insonning o‘zligini shakllantiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta’minlovchi muhim institut sifatida qarash zaruratini kuchaytiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, mehnatning falsafiy tahlili insoniyat tarixidagi muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda mehnatning qadrini oshirish, ishchilarni himoya qilish va mehnatning axloqiy jihatlarini qayta tiklash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning asosiy elementlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Bu o‘rinda mehnat va mehntatga bo‘lgan munosabatni ifodalashda mehnat sharoitlarini muhim sanashning o‘zigina yetarli emas, mehnatga insonlarning o‘zaro munosabatlari, adolat va tenglikning muhim o‘lchami sifatida ham qarash zarur bo‘ladi.

Mehnat tushunchasi va uning muammosi faqat ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning obyekti emas. Balki falsafaning ham asosiy tadqiq qiladigan mavzularidan biridir. Boshqa fan sohalaridan farqli holda, falsafada mehnat masalasi turli rakurslarda: odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi, axloqiy va ma’naviy jihatdan va boshqa tomonlardan ham ko‘rib chiqiladi. Bu o‘rinda eng bahsli masala “mehnat” tushunchasining ta’rifini keltirishda namoyon bo‘ladi. “Bugungi kunda mehnat tushunchasining barcha ta’riflari uni faoliyat tushunchasiga bog‘liq qilib tushuntiradi. Bu oddiy va chuqur tahlilni talab qilmaydigan fenomen sifatida ko‘rinadi. Faoliyat tushunchasi jamiyatshunoslikda hozirgi kunda keng tarqalgan faoliyat yondashuvi doirasida mehnat tushunchasi uchun umumiy tushuncha sifatida qabul qilingan” [1. B. 15].

Mazkur fikrda muallif mehnat fenomenining ko‘p qirrali falsafiy tabiatini asoslab beradi. Unga ko‘ra, mehnat nafaqat iqtisodiy jarayon yoki ishlab chiqarish faoliyati sifatida, balki insonning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarini shakllantiruvchi universal hodisa sifatida qaraladi. Y.N.Pshizovaning “mehnat”ni “faoliyat” tushunchasi bilan bevosita bog‘lash haqidagi fikri esa zamonaviy jamiyatshunoslikdagi faoliyat yondashuvi konsepsiyasiga tayanadi [1]. Biroq muallif bu yondashuvni to‘liq qoniqarli deb bilmaydi, chunki u mehnatni faqat tashqi amaliy faoliyat bilan tenglashtiradi, uning ichki ma’naviy va ontologik mohiyatini ochib bermaydi. Biz ham ayni shu fikrdamiz. Shu nuqtayi nazardan, mehnatni insonning mavjudlik shakli sifatida talqin qilish zarur bo‘ladi. Falsafiy jihatdan mehnat – bu insonning o‘zini tabiatdan ajratgan, ongli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Shuning uchun uni faqat “faoliyat” tushunchasi doirasida izohlash mehnatning aksiologik va ontologik jihatlarini yetarli darajada yoritmaydi. Demak, ushbu fikrlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mehnat tushunchasining falsafiy mazmuni iqtisodiy va ijtimoiy sohalardan tashqariga chiqib**,** insonning mohiyatini anglash vositasi sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga mehnatga “faoliyat” sifatida qarash o‘rinli. Chunki faoliyat tushunchasi har qanday faoliyatni, shu jumladan, mehnatni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun “mehnat” tushunchasini “faoliyat” tushunchasi bilan bog‘lash – bu ayni vaqtda keng va aniq tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Shu bilan birga, ayrim hollarda mehnatni faqat iqtisodiy yoki jamiyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish yetarli bo‘lmaydi. Mehnatning ijtimoiy, madaniy va diniy-ma’rifiy jihatlarini ham inobatga olish zarur. Sababi, mehnat faqat ish yoki faoliyatdan iborat emas. Balki insonning hayot tarzini, munosabatlarini va jamiyatdagi o‘rnini ham aks ettiradi. Shundan

kelib chiqib aytish mumkinki, faoliyat tushunchasi mehnat tushunchasi uchun umumiy asos bo‘lsa-da, mehnat jarayonlarini va munosabatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Mehnatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Mehnatga faqat faoliyat sifatida qarash mehnatning mohiyatini ochib berolamasligini yuqoridagi olimning fikri bilan davom ettiramiz. Y.G.Prjilenskaya “XIX–XX asrlardagi ijtimoiy-falsafiy diskursda mehnat tushunchasi” maqolasida ta’kidlashicha, mehnatni faqat faoliyat sifatida ta’riflash yoki baholash “klassik falsafadagi substansionalistik qarashlarga qarshi turadi va mehnatni inson hayotining muhim qismi yoki o‘ziga xos hodisa sifatida ko‘rishga olib keladi. Klassik falsafada mehnat hayotning bir qismi, insonning mavjud bo‘lishining bir shakli yoki o‘z hayotini ta’minlashi uchun zarur vosita sifatida qaralgan. Inson harakati tushunchasi faoliyat tushunchasining asosini tashkil etuvchi falsafiy kategoriya sifatida nisbatan yaqinda shakllangan. Masalan, I.Kant harakatni faqat yuridik nuqtayi nazardan tushungan” [2. B. 57].

Muallifning ushbu fikrida mehnatning ontologik va aksiologik mohiyatini faqat “faoliyat” bilan tenglashtirish mumkin emasligi asoslanadi. Bu bilan mehnatni insonning mavjudlik tarzini belgilovchi substansial hodisa sifatida talqin etuvchi klassik falsafa bilan zamonaviy ijtimoiy yondashuvlar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Klassik falsafada, xususan, Arastu va Gegel qarashlarida, mehnat insonning “tabiiy faoliyati” sifatida ko‘riladi. Mehnat inson hayotini davom ettiruvchi va mavjudlikni ta’minlovchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy falsafada “faoliyat” tushunchasi mehnatni faqat tashqi harakat, ishlab chiqarish jarayoni yoki ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z aksini topuvchi amaliy faoliyat deb tushunadi. Bu yondashuv esa mehnatning ichki ma’naviy, ijodiy va mavjudlik jihatlarini yetarlicha yoritmaydi. Demak, mazkur fikrga ko‘ra mehnatni inson mavjudligining falsafiy kategoriyasi sifatida qayta anglash zarurligini ta’kidlaydi. Mehnatni faqat iqtisodiy faoliyat yoki tashqi harakat bilan chegaralash, uning ijtimoiy-falsafiy va aksiologik mohiyatni shakllantiruvchi ijodiy va ma’naviy asosini e’tibordan chetda qoldiradi. Shu jihatdan bu yondashuv ontologik tahlilda muhim falsafiy pozitsiyani ifodalaydi. Ya’ni, mehnat insonning “borliqdagi mavjudlik usuli”dir.

Mehnat tushunchasini lug‘atlar doirasida ta’riflashda fanlararo yondashuv zarurligi yaqqol ko‘rinadi. “Rus tilining katta zamonaviy izohli lug‘ati”da unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Mehnat – bu insonning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati, jismoniy yoki aqliy kuch sarflanishini talab qiladigan ish yoki ishlab chiqarish vositalari yordamida moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat” [3]. Bu ta’rifda asosiy urg‘u yana faoliyat tushunchasiga qaratilganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Mazkur ta’rifda mehnatning uchta asosiy xususiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Birinchidan, mehnat nafaqat har qanday ish, balki aniq maqsadga erishish uchun bajariladigan faoliyatdir. Ya’ni, mehnat biror natijaga erishish, jamiyatga yoki o‘ziga foyda keltirish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlarining barchasi biror maqsadga qaratilgan. Ikkincidan, mehnatni amalga oshirish uchun inson jismoniy (jismoniy ishlarni bajarish) yoki aqliy (fikr yuritish, muammoni hal qilish) kuch sarflaydi. Uchinchidan, inson ishlab chiqarish vositalaridan (asbob-uskunalar, texnika, bilimlar) foydalangan holda moddiy (mahsulotlar, oziq-ovqat) va ma’naviy (bilim, san’at) boyliklarni yaratadi. Umuman olganda, bu ta’rif mehnatni insonning maqsadga yo‘naltirilgan va resurslarni (kuch va vositalar) ishlatib boylik yaratishga qaratilgan faoliyati sifatida tushuntiradi.

Qiyom Nazarovning “Jahon falsafiy qomusi” lug‘atida ham mehnatning asosida “faoliyat” yotishiga urg‘u berilgan [4. B. 790]. Ya’ni, odamlar nimanidir yaratish, biror maqsadga erishish uchun ongli ravishda faoliyat yuritadilar. Mehnat insonni hayvonlardan farq qiladigan faoliyatdir. Hayvonlar tabiiy instinktlar asosida yashaydi, lekin inson mehnat orqali o‘z maqsadlarini belgilaydi va unga erishishga harakat qiladi. Mehnat odamzodning tabiatdan ajralib chiqishi va rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lgan, degan qarash falsafada hozirda ham ustuvor. Ibtidoiy davrdan boshlab inson mehnat orqali o‘zining jismoniy va aqliy salohiyatini rivojlantirgan. Dastlabki insonlar oddiy ish qurollari yaratishgan, keyinchalik esa murakkab texnika va texnologiyalarni ishlab chiqa boshladilar. Mehnat tufayli inson o‘zining iqtidori va salohiyatini samarali ishga solish imkoniyatiga ega bo‘lgan. U o‘z maqsadlariga erishish va orzularini amalga oshirish uchun turli vositalar, usullar va yo‘llarni yaratgan. Tarix davomida mehnat aqliy, jismoniy va intellektual asarlarning yaratilishiga olib kelgan. Bu asarlar odamlarning bilimi, madaniyati va texnologiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan. Diniy nuqtayi nazardan, mehnat Yaratganning insoniyatga nisbatan inoyati sifatida ko‘riladi. Ya’ni, odamga yashash, hayot kechirish, o‘ziga va boshqalarga zarur bo‘lgan narsalarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratish – bu mehnat tushunchasining diniy mazmunidir. Mazkur mulohazalardan mehnatning insoniyat uchun faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, madaniy va diniy ahamiyati ham muhim ekanligi anglashiladi. Mehnat, birinchi navbatda, insoniyat taraqqiyotining asosiy mexanizmi, uning intellektual va jismoniy salohiyatini rivojlantiruvchi kuch sifatida qaraladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat – bu insonning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, u jismoniy yoki aqliy kuch sarflash orqali moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga qaratilgan. Ta’riflarda mehnatning uchta asosiy xususiyati ta’kidlanadi:

1) aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

2) jismoniy yoki aqliy kuch sarflanishi;

3) ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish orqali boylik yaratish.

Fanlararo yondashuvda mehnat nafaqat iqtisodiy jarayon, balki ijtimoiy, madaniy va diniy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa sifatida ko‘riladi. Falsafiy jihatdan mehnat insonni hayvondan ajratib turuvchi omil bo‘lib, u insonning rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Diniy nuqtayi nazardan, mehnat Yaratganning inoyati, ya’ni insonga yashash va jamiyatga foyda keltirish imkonini beruvchi vositadir.

Tadqiqotimizda qo‘yilgan masadlardan biri mehnatning falsafiy taraqqiyotini o‘rganish va bu orqali mehnatning mohiyatini anglashdan iborat. Bu borada albatta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va maqolalar e’lon qilingan. Xususan, R.A.Shamsudinovning “Falsafa nuqtayi nazaridan mehnat tushunchasi” maqolasi e’tiborimizni tortdi. Unda muallif quydagilarni yozadi: “Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida va insoniyat sivilizatsiyasining turli davrlarida mehnatga bo‘lgan munosabat o‘zgarib turdi. Bu o‘zgarishlar jamiyatning o‘sha davrdagi taraqqiyot darajasiga va yashayotgan geografik mintaqasiga mos kelar edi. Bu mehnat tushunchasini ta’riflashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Dastlab mehnat masalasi qadimgi Sharq va yunon faylasuflari asarlarida ko‘tarilgan. Keyinchalik “modern davr” falsafasida, uning tarkibiga kiruvchi kapitalizm va sanoat inqilobi davrida alohida o‘rin egalladi. XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob natijasida mehnat masalasi, mehnat tushunchasi va mehnat munosabatlari falsafada yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan xususiyatlarni namoyon qildi. Boshqacha aytganda, mehnat har doim, shu jumladan, bugungi kunga qadar, faylasuflarning o‘y-xayollarini egallagan” [20. B. 625].

Mazkur fikrda muallif mehnat tushunchasining tarixiy-madaniy jarayon sifatida rivojlanishini ko‘rsatadi. Mehnatga bo‘lgan munosabat bir xil emas. Mehnat jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi, mafkuraviy qarashlari va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq. Biz ilgari surayoygan fikr shuki, har bir davrda mehnat nafaqat ishlab chiqarish jarayoni, balki ijtimoiy ong va falsafiy tafakkurning markaziy kategoriyasi sifatida o‘zgarib borgan.

Qadimgi Sharq falsafasida mehnat, asosan, kosmik tartib va axloqiy burch bilan bog‘liq holda tushunilgan. Masalan, Konfutsiy ta’limotida mehnat insonning jamiyatdagi o‘rnini anglash va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash vositasi sifatida qaralgan. Yunon falsafasida esa, xususan, Arastu qarashlarida, mehnat ko‘proq quyi ijtimoiy qatlamga xos amaliy faoliyat sifatida baholangan, ya’ni u intellektual faoliyatdan past turuvchi zaruriy amaliy harakat deb qaralgan.

Modern davr falsafasida esa mehnatning mazmuni tubdan o‘zgaradi. Sanoat inqilobi va kapitalistik ishlab chiqarish tizimi mehnatga ijtimoiy qiymat yaratish vositasi sifatida qaraydi. Bu davrda Karl Marks mehnatni “insonning mohiyatini ifodalovchi asosiy faoliyat” sifatida talqin qilib, uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markaziga qo‘yadi. Shu bilan birga, Maks Veber mehnatni diniy-axloqiy asosda tahlil qilib, protestant mehnat etikasi nuqtayi nazaridan zamonaviy kapitalizm ruhini tushuntiradi.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilob mehnatning yangi qirralarini ochdi: avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, intellektual mehnat shakllarining ustunligi natijasida mehnatning ontologik va aksiologik, ijtimoiy-falsafiy mazmuni qayta talqin qilina boshlandi. Endilikda mehnatni insonning jismoniy harakat orqali emas, balki bilim, axborot va ijodkorlik orqali o‘zini namoyon etishiga imkon beruvchi faoliyat sifatida anglash yo‘liga o‘tildi.

Demak, mehnat tushunchasining tarixiy evolyutsiyasini chuqur falsafiy asosda o‘rganish zarur. Mehnat bu o‘zgaruvchan, davr ruhiga moslashuvchi, lekin mohiyatan inson mavjudligining ajralmas elementi bo‘lib qoluvchi hodisadir. Shu sababli uni, tarixiy sharoitlardan qat’i nazar, ontologik asosga ega, universal falsafiy kategoriya sifatida o‘rganish dolzab masaladir.

Qadimgi Sharq faylasuflaridan Konfutsiy (mil. av. 551–479) va Lao Szi (mil. av. 579–499) mehnatga katta ahamiyat berganlar. Ularning g‘oyalaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat faqat tirik qolish vositasigina emas, balki axloqiy mukammallikka va tabiat bilan uyg‘unlikka erishishning muhim omilidir.

Xususan, Konfutsiy ta’limotida mehnat inson hayoti va jamiyat taraqqiyotining markaziy mezoni sifatida talqin etiladi. Konfutsiy uchun mehnat axloqiy fazilat va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlovchi omil hisoblanadi. Uning “Lun Yuy” (“Analektlar”) asarida keltirilgan quyidagi qarashlar fikrimizning isboti bo‘la oladi: “Mingta aravaga ega bo‘lgan mamlakatni boshqarish uchun ishlarga jiddiy e’tibor bilan, samimiyat va halollik bilan yondashish, sarf-xarajatda tejamkorlik qilish, xalqni sevish va ularni o‘z vaqtida ish bilan ta’minlash lozim” [17]. Aytish mumkinki, Konfutsiy davlat boshqaruvi, ijtimoiy barqarorlik va mehnat faoliyatini yagona axloqiy tizim sifatida ko‘radi. U boshqaruv-

chidan ham, oddiy insondan ham mehnatga ongli, halol va samimiy munosabatni talab qiladi.

Konfutsiy nazarida mehnat insonni “*li*” (tartib va odob) hamda “*jen*” (insonparvarlik) tamoyillari asosida kamolotga yetkazadi. U ishlarda jiddiylik va samimiyatni, sarf-xarajatda tejamkorlikni va insonni sevishni mehnat axloqining asosiy shartlari sifatida belgilaydi. Shu jihatdan Konfutsiy mehnatni ijtimoiy totuvlikni saqlovchi axloqiy faoliyat deb biladi. Uning “xalqni o‘z vaqtida ish bilan ta’minlash lozim” degan fikri esa mehnatni tabiat va inson hayotining tabiiy ritmlari bilan uyg‘un faoliyat sifatida talqin etadi. Bu, o‘z navbatida, Konfutsiy ta’limotining ekologik va ijtimoiy barqarorlik g‘oyalariga asos bo‘lganini ko‘rsatadi. Konfutsiy mehnat insonni shon-shuhratga emas, balki ichki kamolotga, jamiyat bilan uyg‘un yashashga chorlaydi. Shuning uchun ham u mehnatni axloqiy o‘zini tarbiyalashning vositasi deb biladi. Uningcha, inson mehnat orqali o‘z “tabiiy mohiyatini” anglaydi va ijtimoiy majburiyatlarini ado etish orqali “haqiqatga yaqinlashadi”. Shunday qilib, Konfutsiy ta’limotida mehnatning ijtimoiy va axloqiy mazmuni insonni ma’naviy jihatdan ham yuksaltiradi. Bu yondashuv mehnatni qadimgi Sharq falsafasida inson kamolotining va jamiyat barqarorligining tayanch omili sifatida ko‘rish imkonini beradi

Lao Szi insonni kamtarlik, fidoyilik va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga undaydi. “Yaratish, ammo unga egalik qilmaslik” degan tamoyil insonning yaratuvchanlik faoliyatida o‘zini markazga qo‘ymasligini, balki borliq bilan uyg‘unlikda harakat qilishi zarurligini bildiradi. “Ishlash, ammo shon-shuhrat yoki mukofot kutmaslik” esa mehnatning axloqiy qadri uning natijasida emas, balki jarayonning o‘zida ekanini ko‘rsatadi. “Ishni bajarib, keyin uni unutish” fikri insonni o‘z amallarining natijasiga haddan tashqari bog‘lanib qolishdan ozod etadi. Shu bois, Lao Sziga ko‘ra, mehnatning abadiyligi inson shaxsiy manfaatlardan yuksalib, uni umumiy uyg‘unlik tamoyillari bilan bog‘lay olganidagina namoyon bo‘ladi. Lao Szining bu qarashi mehnatni nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy-axloqiy hodisa sifatida talqin etganini ko‘rsatadi; unda insonning ichki kamoloti, tabiat bilan uyg‘unligi va ruhiy osoyishtaligi markaziy o‘rinni egallaydi.

Mutaxassislar fikricha, Konfutsiy va Lao Szi ta’limoti bugungi kunda Janubi-sharqiy Osiyo mamalakatlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim falsafiy turtki bo‘lib xizmat qildi. Bugungi Xitoy va boshqa konfutsiylik tarqalgan mintaqalarda mehnat faoliyatini amalga oshirishda tashkilotga sodiqlik, tejamkorlik, fidoyilik, jamoa a’zolari o‘rtasida uyg‘un munosabatlar, ilm-ma’rifatga muhabbat va ijtimoiy adolatga bo‘lgan e’tiqodni o‘z ichiga olgan mehnat axloqini shakllantirdi [6. B. 68].

Konfutsiy falsafasida mehnat etikasi, eng avvalo, oilaviy munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Oila iqtisodiy va ijtimoiy totuvlikning asosiy omili sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tamoyil zamonaviy Xitoy, Yaponiya va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-axloqiy mentalitetida chuqur ildiz otgan. Konfutsiychilik qadriyatlari aynan iyerarxiya tizimi – kichiklarning kattalarga bo‘ysunishi, burch va sadoqat, umumiy manfaatlarning ustuvorligi, fidoyilik va uyg‘unlik nafaqat oilaviy, balki iqtisodiy munosabatlarda ham asosiy axloqiy me’yor bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli yirik xitoy, yapon va koreys korporatsiyalarida oila tamoyillari saqlanib qolgan: rahbarlik lavozimlarini ko‘pincha qarindoshlar egallaydi, korxona esa “ishonch hujayrasi” sifatida qaraladi. Konfutsiychilikda oila mehnat madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, u jamiyatdagi barqarorlik va iqtisodiy muvaffaqiyatning axloqiy poydevorini tashkil etadi. Bu jihatga tadqiqotchi olimlarning alohida yondashuvlari ham mavjud. Xususan, A.H.Polyakov bu masalada ilmiy tadqiqot olib borgan [7. B. 24-25].

Bir so‘z bilan aytganda, qadimgi Sharq falsafasida mehnat, nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, balki shaxsiy o‘sish va tabiat bilan uyg‘unlikni ta’minlashning ma’naviy jarayoni sifatida qaralgan. Bunday qarashlar mehnatning nafaqat jismoniy va iqtisodiy, ayni paytda, ruhiy-manaviy jihatlari mavjudligini ta’kidlaydi. Bu falsafiy nuqtayi nazar insonning o‘z ichki dunyosini, atrofdagi olam bilan uyg‘unligini va tabiat qonuniyatlarini anglashiga yordam beradi.

Demak, Konfutsiy ta’limotida mehnatga nafaqat moddiy ta’minot vositasi, balki insonning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy shakllanishidagi muhim omil sifatida yondashilgan. Konfutsiy uchun mehnat burch, fidoyilik va axloqiy fazilatlarni namoyon etish vositasi bo‘lib, u jamiyat va oiladagi uyg‘unlikni ta’minlaydi. Uning mehnat etikasi sadoqat, jamoaviylik va tashkilotchilikka sodiqlik kabi qadriyatlarni ilgari suradi. Bu qadriyatlar hozirgi kun Osiyo mamlakatlarining madaniy va iqtisodiy tizimlarida chuqur ildiz otgan.

Lao Szi esa mehnatni tabiat bilan uyg‘unlik, samimiyat va ichki xotirjamlik bilan bog‘laydi. U mehnatni tabiiylik asosida amalga oshirishni, ortiqcha harakatdan saqlanishni tavsiya qiladi. Bu yondashuv mehnatni ruhiy muvozanat va ichki taraqqiyot vositasi sifatida ko‘rsatadi. Umuman olganda, Sharq falsafasida mehnat faqat jismoniy faoliyat emas, balki ma’naviy poklanish, axloqiy kamolot va tabiat bilan uyg‘un hayot kechirishning asosiy vositasidir. Bu qarashlar bugungi kunda ham mehnatga bo‘lgan yondashuvda chuqur ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Yunonistonda mehnatga bo‘lgan munosabat murakkab va xilma-xil bo‘lib, u ijtimoiy tabaqalar va falsafiy maktablarga qarab farqlangan. Jismoniy mehnat ko‘pincha qullar va quyi tabaqa vakillarining ishi deb hisoblangan, erkin fuqarolar esa, ayniqsa, zodagonlar siyosat, falsafa, san’at va harbiy faoliyatlarni ustun qo‘ygan va jismoniy mehnatga ikkilamchi, unchalik muhim bo‘lmagan faoliyat deb qarashgan. Bu qarashlar yunon jamiyatining ijtimoiy strukturasi va intellektual qadriyatlarining ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, jismoniy mehnatning qadri past bo‘lgan, ma’naviy va intellektual faoliyat esa yuqori baholangan.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (mil. avv. 428–348-yy.) mehnat haqida muhim va qimmatli falsafiy fikrlarni bayon qilgan. Uning “Respublika” va “Qonunlar” asarlarida mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv prinsiplaridan foydalanish har qanday jamiyatda mehnat tizimining samarali ishlashini ta’minlash uchun zarur ekanligi ta’kidlangan. Aflotunning fikriga ko‘ra, har bir shaxsning ma’lum bir sohada ixtisoslashishi va mehnatning samarali tarzda taqsimlanishi jamiyatning umumiy farovonligini va adolatni ta’minlashda muhim shart hisoblanadi. Har bir odamning jamiyatda o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi va umumiy manfaatlarga hissa qo‘shishi polisning yaxlitligi va tartibini saqlab qolishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, Aflotun “Respublika” va “Qonunlar” asarlarida hamda boshqa risolalarida mehnat masalasiga maxsus to‘xtalmagan. U mehnatni axloqiy siyosiy tizim doirasida ko‘rib chiqqan. Aflotun “Respublika” asarining ikkinchi kitobida mehnat taqsimotini davlatning tabiiy ehtiyoji va adolat tamoyilining asosi sifatida tilga oladi, lekin bu mavzu iqtisodiy yoki falsafiy mehnat nazariyasi sifatida rivojlantirilmaydi. U faqat shunday deydi: “Har bir inson tabiatan bir ishni yaxshi bajarishga moyil, shu bois har kim o‘z tabiiy qobiliyatiga mos ish bilan shug‘ullanishi lozim” [8].

Aflotunning “Qonunlar” asarida mehnat masalasi bevosita iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy tartib va kasb ixtisoslashuvi nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. U o‘zining “Qonunlar” asarida shunday deydi: “Har bir fuqaro o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashmog‘i, bir vaqtning o‘zida bir necha sohada ishlamasligi kerak, chunki bu jamiyatda tartibni buzadi” [18]. Ushbu fikr Aflotunning ijtimoiy tizimdagi barqarorlik, tartib va mehnat taqsimotining zaruriyligi haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Uning fikricha, har bir insonning o‘z sohasiga sodiq qolishi va jamiyatdagi vazifasini aniq bajarishi ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Shu orqali Aflotun mehnatni fuqarolik burchi va siyosiy-axloqiy mas’uliyat doirasida tushunadi. Aytib otganimizdek, faylasuf bu masalaga falsafiy-ontologik nuqtayi nazardan, ya’ni mehnatning inson mohiyati, erkinlik yoki ijod bilan bog‘liq jihatlaridan kelib chiqib yondashmagan. Uning e’tibori mehnatning siyosiy va axloqiy funksiyasiga, boshqacha qilib aytganda, jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlashdagi roliga qaratilgan.

U mehnatni ijtimoiy tartib va adolatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan bir unsur sifatida kiritgan bo‘lsada, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va batafsil ravishda falsafiy diskursda muhokama qilmagan. Ammo “Aflotunning “polis” haqidagi g‘oyalari, ya’ni “o‘z ehtiyojlarini qondirish va umumiy farovonlikka erishish uchun hamkorlik qilayotgan odamlar tomonidan tashkil etilgan hamjamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda mehnatni hisobga olmasdan to‘liq tushunilishi mumkin emas. Aflotun yozadi: “Davlat hech bir shaxsning o‘zini o‘zi ta‘minlashga qodir emasligi sababli yuzaga keladi. Barchamizning ehtiyojlarimiz ko‘p” [19]. U davlatning paydo bo‘lishini insonlarning o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan ehtiyoji bilan izohlaydi.

Bu Aflotunning jamiyatni shakllantirish va uning samarali ishlashiga oid fikrlarining asosiy jihatlaridan biridir. Polisning barqaror va samarali ishlashi uchun undagi a’zolarning mehnati, ixtisoslashuvi va bir-biriga bo‘lgan ehtiyoji muhim o‘rin tutadi. Demak, mehnat, uning taqsimlanishi va turli ixtisoslashuvlar polisning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Aflotun mehnat haqidagi g‘oyalarini mifologik, iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy kontekstlarda taqdim etadi. Uning asarlarida mehnat har bir jamiyatning samarali boshqarilishini ta’minlash maqsadiga qaratilgan bo‘lib, boylik va kambag‘allikning ekstremalaridan saqlanish, shuningdek, boylik va mulkni nisbiy ravishda taqsimlash zarurligini ta’kidlaydi. Bu prinsiplar davlatda iqtisodiy tenglik va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Aflotun mehnatni faqat iqtisodiy foyda keltirishning bir vositasi sifatida talqin qilmagan. U mehnatni shaxsning axloqiy va madaniy rivojlanishi uchun ham zarur deb bilgan. Shuning uchun mehnatning samarali taqsimlanishi va boshqarilishi davlatning barqarorligi uchun muhimdir, degan xulosani beradi.

Antik yunon faylasufi Arastu (mil. avv. 384-322-yy.)ning mehnat haqidagi fikrlari Aflotun qarashlarini davom ettiradi. Ammo bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Y.B.Tuytsinning fikricha, “Arastu qadimiy Afinada shahar-davlatning gullab-yashnagan “oltin” davri, shu bilan birga polis tizimining yemirilish jarayoniga ham guvoh bo‘lgan. Miloddan avvalgi IV asrda quldorlik ishlab chiqarish usulining iqtisodiy mexanizmlari Peloponnes yarim oroli mamlakatlarini farovonlikka olib kelgan edi” [9. B. 74].

Albatta, Arastu falsafasida quldorlik tuzumi va unga bog‘liq siyosat ustuvor bo‘lgan. Bu mehnat

va mehnat munosabatlariga oid qarashlarni bayon qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning g‘oyalarida jismoniy mehnat quyi tabaqa vakillarining asosiy faoliyatidir. Aqliy mehnat – san’at, adabiyot, siyosat va boshqalar yuqori tabaqa vakillari tomonidan bajarilishi kerak. Arastuning bu g‘oyasi uning ijtimoiy tartib va mehnat taqsimoti haqidagi qarashlarini belgilovchi asosiy tamoyil, ya’ni “badan va ruh” o‘rtasidagi farqni ajratishi sababli kelib chiqqan. U jismoniy mehnatni, ayniqsa, qullar tomonidan bajariladigan faoliyatlarni ruhiy yoki intellektual faoliyatlarga qaraganda pastroq deb hisoblagan. Arastu erkin odamlarning maqsadi va faoliyatini aqlni rivojlantirish va axloqiy fazilatlarni oshirish deb belgilaydi [10].

Arastu fikricha, “uy xo‘jaligi tabiiy jamoa bo‘lib, uning yashashi uchun “tirik asboblar”, ya’ni qullar zarur. Chunki asboblar buyruqni tushunmaydi, inson esa tirik vosita sifatida mehnat orqali xo‘jalik ehtiyojlarini qondiradi. Shu bois tabiat ayrim odamlarni boshqaruvchi, boshqalarini esa tabiatan bo‘ysunuvchi qilib yaratgan” [10. B. 56.], deydi u. Uning davrida bu qarash turli yo‘nalishlardan tahdid ostida edi. Siyosiy hayotda ham zulm, ham demokratiya shakllari qullarga nisbatan cheklovlarni yumshatishga moyil bo‘lib, bu holat qullarning jamiyatdagi mavqeini nisbatan o‘zgartira boshlagan edi.

Intellektual doiralarda yangi nazariyalar paydo bo‘lib, ular qullikka qarshi yo‘nalgan edi. Masalan, faylasuflar qullikni “tabiiy holatning buzilishi” deb baholaganlar. Alkidamas shunday degan: “Xudo barcha odamlarni ozod yaratgan, tabiat hech kimni qul qilib yaratmagan” [10. B. 55.]

Arastu qullikni saqlab qolishga urinib, bir qancha fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Masalan, qul va erkin odam o‘rtasidagi jismoniy va ruhiy farqlarni asoslashga urinishlarni aytib o‘tish mumkin. Arastu “tabiat ularning tanasini boshqacha yaratgan” deya ta’kidlaydi. [10. B. 57]. Qullik – ruhning aqlga bo‘ysunuvchi qismiga mos keluvchi munosabat deb ta’riflanadi.

Arastu qarashlaridan ma’lum bo‘lmoqdaki, uning dunyoqarashi va siyosiy-falsafiy qarashlari u yashagan jamiyatining tuzilishi va qabul qilingan ijtimoiy tizimlaridan mustaqil emas. Miloddan avvalgi davrda yunon jamiyatida qullik keng tarqalgan va ko‘plab faylasuflar, jumladan, Arastu qullikni ijtimoiy tuzumning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan. “U to‘liq ravishda Aflotunning “qullikni tabiiylashtirish” fikrini qabul qilgan va o‘zining munozaralari bilan bu fikrni kengaytirgan. Arastuning fikricha, tabiat shunday tuzilganki, erkin odamlarning jismoniy tuzilishi qullarning jismoniy tuzilishidan farq qiladi: qullarning tanasi kuchli bo‘lib, zarur jismoniy ishlarni bajarishga mos keladi, erkin odamlar esa... bunday ishlarni bajarishga qodir emas” [10. B. 58].

Yunon faylasuflarida kuzatilganidek, Rim falsafasida ham mehnat alohida kategoriya sifatida izohlanmagan. Ammo mehnat munosabatlari, mehnat taqsimoti va insonlarning kasb-kor bilan shug‘ullanishi borasida bugungu kunda ham dolzarb bo‘lgan fikrlar ilgari surilgan. Qadimgi Rim falsafasi yunon falsafasi ta’sirida shakllanganligi ma’lum. Shunday bo‘lsa-da, Rim falsafasida amaliyotga, huquqiy tizimga va ijtimoiy tartibga ko‘proq ahamiyat berilgan. Bu mehnat va mehnatga munosabatda ham o‘z aksini topgan. R.A.Shamsudinovning fikricha, yunon falsafasi kabi qadimgi Rim falsafasida ham mehnatga ikki tomonlama munosabat bildirilgan. Rim zodagonlari o‘z ishlari (fikr yuritish, siyosat bilan shug‘ullanish, harbiy soha)ni afzal ko‘rgan. Jismoniy mehnatni esa qullar va quyi tabaqa kishilarining ishi deb qarashgan [20. B. 626].

Rim faylasuflaridan Sitseron (mil. avv. 106–47 yy.) ning fikrlarida mehnat va mehnat munosabatlarining aksiologik, ijtimoiy-falsafiy jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Insonlarning kasb tanlash jarayonlariga ta’sir qiluvchi omillarni faylasuf alohida ta’kidlaydi. Birinchi navbatda odamlarning biror kasbni tanlashi ularning erkin tanlovlari bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Bu tanlov uning kuzatuvlari asosida shakllanadi. [12]. Bu kuzatuvlar natijasida vujudga kelgan tanlov jamiyatning qolipidan chiqib ketmaydi. Albatta, hayotda tasodiflar ham mavjud. Ana shu tasodiflar insonning keyingi faoliyatini davom ettirishda muhim rol o‘ynaydi [12].

Ayniqsa, ota-onalar yoshlarning ma’lum kasbni tanlashlarida alohida ta’sir qiluvchi omildir. Bu o‘rinda kasblarning meros bo‘lib o‘tishiga e’tibor qaratiladi. Sitseron quydagilarni yozadi: “Ba’zi kishilarning ota-bobolari yoki ajdodlari ma’lum bir sohada obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan bo‘lishadi. Shuning uchun ular ham ko‘pincha xuddi shu yo‘nalishda, ya’ni bir xil xizmat yoki kasb sohasida yuksaklikka erishishga intiladilar. Masalan, qonunchilikda Publiy Mutsiy o‘g‘li Kvint, harbiy sohada esa Paulusning o‘g‘li Afrikanus bunga misoldir. Ba’zilar esa ota-bobolaridan meros bo‘lib qolgan shu faxrli farqni o‘zlarining shaxsiy fazilatlari bilan yanada yoritganlar. Masalan, Afrikanus o‘ziga meros bo‘lgan harbiy shon-shuhratni notiqlik iste’dodi bilan bezagan. Shuningdek, Kononning o‘g‘li Timofey ham shunday qilgan, u otasidan kam bo‘lmagan harbiy jasoratni ko‘rsatib, bunga o‘zining madaniy saviyasi va aqliy qudratini qo‘shgan. Ba’zan esa buning aksi ham bo‘ladi: inson ota-bobolarining kasbini davom ettirishni istamay, boshqa sohani tanlaydi. Shu bilan birga, oddiy yoki kamtar oiladan chiqqan bo‘lsalar-da, yuksak maqsadlarni oldiga qo‘yganlar ko‘pincha o‘z niyatlariga erishadilar [12].

Yuqoridagi faylasuflarning fikr va qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, yunon va Rim falsafasi-

da jamiyatning iyerarxiyasi har kimning o‘z maqomidagi mehnat turi bilan shug‘ullanishini belgilab bergan. Mehnat va mehnat faoliyati jamiyat barqarorligi va davlatning iqtisodiy mustahkamligining zarur omili deb qaralgan.

Bugungi kunda insoniyat qo‘liga yetib kelgan eng qadimiy yozma manbalardan biri – “Avesto”dir. Ushbu asarda ham mehnat, mehnat munosabatlari haqida qarashlar mavjud. Manbalardan ma’lumki, miloddan avvalgi II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Turon mintaqa xalqlari ko‘chmanchi hayot tarzidan bosqichma-bosqich o‘troq hayotga, xususan, dehqonchilik faoliyatiga o‘tishni boshlagan. Bu tarixiy jarayon, albatta, tarixchilarimiz tamonidan batafsil o‘rganilgan. Ma’naviyatshunoslik va dinshunoslik sohalaridagi mutaxassislar o‘troqlashuv jarayonini tahlil etishda uni zardushtiylik dini bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadilar. Ularning fikricha, zardushtiylik dunyoqarashida insonning ijtimoiy hayot tarzi, ayniqsa, uning mehnat shakli va turmush tarziga oid qarashlar muhim o‘rin tutadi. “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati” kitobida quydagicha ma’lumot berilgan: “Zardusht o‘z ta’limotida (“Avesto”ning gotlar qismida) chorvachilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan o‘troq dehqonchilik turmush tarzini qarama-qarshi qo‘yib, ko‘chmanchi chorvachilikka asoslangan hayot tarziga barcha yovuzliklarning manbasi deb qaraydi. O‘z fuqarolarini cho‘l xalqlari yashash tarzida ko‘proq Ahriman irodasi qonunlashtirilganidan ogoh bo‘lishga chaqiradi” [13. B. 184].

Agar islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelgan davrini – milodiy VII–VIII asrlarni – e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu davrda turkiy xalqlarning aksariyati hali ham chorvachilik bilan shug‘ullanayotgan edi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, zardushtiylikdagi chorvachilikka salbiy munosabat turkiy xalqlarning o‘sha davrdagi turmush shakllari bilan ma’lum darajada ziddiyatga kirganini kuzatish mumkin. Biroq bu yondashuvni biryoqlama deb bo‘lmaydi. Chunki “Avesto”ning “Yasht” bo‘limida Mitra xudosiga bag‘ishlangan madhiyalar mavjud bo‘lib, ularda Mitraning chorvachilik va yaylovlarga baraka ato etuvchi, ularni himoya qiluvchi iloh sifatida ta’riflanishi bir necha bor ta’kidlanadi. Bu holat zardushtiylikda chorvachilikka nisbatan butunlay salbiy qarash mavjud emasligini, balki mehnat shakllarining axloqiy-ruhiy jihatdan tartibga solinishiga urg‘u berilganini ko‘rsatadi [14. B. 47].

Garchi chorvachilik faoliyati davom etgan bo‘lsada, mazkur davrdan boshlab, dehqonchilik va sug‘orma yerlar yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash zarurati kuchaygan. Chunki o‘troqlashgan jamiyatlar barqaror siyosiy va madaniy tizimlarni shakllantirish imkonini bergan. Biroq bu jarayondagi bir haqiqatni e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur: zardushtiylik Yevrosiyo materigida keng tarqalgan turkiy xalqlarning umumiy diniy e’tiqodiga aylanmagan. Turkiy xalqlarni diniy jihatdan birlashtirib turgan asosiy aqida “tangrichilik” bo‘lib, u ko‘chmanchi hayot tarziga ko‘proq mos kelgan. Zardushtiylik ta’limotida yerga ishlov berish, uni toza saqlash, suv manbalarini asrash va hayvonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish kabi qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etgan

Insoniyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutgan yirik sivilizatsiyalardan biri bu – arab (musulmon) sivilizatsiyasidir. Ushbu sivilizatsiya o‘z davrida ilm-fan, falsafa, san’at, iqtisod va ijtimoiy hayotning turli sohalarida chuqur iz qoldirgan bo‘lib, uning asosiy manbai sifatida islom ta’limoti e’tirof etiladi.

Islom ta’limotida mehnat masalasi alohida falsafiy, huquqiy va ijtimoiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Mehnatning mohiyati, inson hayotidagi o‘rni, uning axloqiy-me’yoriy asoslari va jamiyat taraqqiyotidagi funksional ahamiyati islom manbalari – Qur’on, hadis va fiqhiy asarlarda batafsil yoritilgan. Shu jihatdan mehnat va mehnat munosabatlari islom falsafasi hamda ijtimoiy tafakkurining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

Islom ta’limoti mehnatni faqat jismoniy faoliyat bilan emas, balki axloqiy va aqliy faoliyat bilan bog‘liq holda keng talqin etadi. Mehnat jamiyat oldidagi mas’uliyat, Alloh roziligi va ijtimoiy farovonlik vositasi sifatida qadrlanadi. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) va sahobalar o‘z kasblari orqali tirikchilik qilib, mehnatning sharafini amalda ko‘rsatganlar.

Zamonaviy islom ulamolaridan Yusuf Qarzoviyning ta’biri bilan aytganda, “Islom axloqi kishilarni jamiyat oldida mas’uliyatli bo‘lishga va jamiyat rivoji uchun foydali mehnat qilishga undaydi. Mehnat, islom nazarida, farovon hayot kechirish vositasigina emas, ayni paytda Alloh roziligi va jamiyat manfaati yo‘lida yaxshi amallar majmuasidir. Mehnat orqali qo‘lga kiritilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yutuqlarni jamiyat uchun sarflash ham mehnat orqali ro‘yobga chiqadi. Mehnat qilish sabablari esa islom axloqiy tamoyillariga muvofiq bo‘lishi lozim. Ya’ni, taqiqlangan ish (harom amal) bilan shug‘ullanish, hatto jismga va ruhiyatga salbiy ta’sir qiladigan darajada qattiq urinish mehnat va mehnatsevarlik hisoblanmaydi” [15. B. 197].

Payg‘ambarlarning har biri o‘z ro‘zg‘orining manbai bo‘lgan kasb va hunarlarni puxta egallaganlar. Hadislarda kishining qo‘l mehnati bilan topib yegan taomi eng yaxshi taom ekanligi ta’kidlanadi. Payg‘ambarlarning asosiy vazifasi ilohiy amrlarni yetkazish bo‘lsada, o‘z kasb-koriga ega bo‘lib, kasbi orqali tirikchilik qilishgan. Odam alayhissalom dehqonchilik bilan, Id-

ris, Nuh va Zakariyo alayhissalomlar duradgorlik bilan shug‘ullanganlar. Ibrohim alayhissalom bazzozlik (bo‘z sotuvchi), Muso alayhissalom cho‘ponlik, Dovud alayhissalom temirchilik qilgan, Sulaymon alayhissalom xurmo shoxlaridan zanbil yasab sotgan. Pag‘ambarimiz Muhammad alayhissalom esa qo‘ychuvonlik va savdogarlik bilan shug‘ullangan. Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sahobalari (izdoshlari va safdoshlari) ham o‘z tirikchiliklari uchun ma’lum kasb bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Xususan, Abu Bakr savdogarlik, Usmon ibn Talha tikuvchilik, Habbob ibn Art temirchi, Abdulloh ibn Mas’ud cho‘ponlik, Zubayr ibn Avvom tikuvchi va tijoratchi, Salmon Forsiy sartaroshlik qilgan [16. B. 14].

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilar mehnat va mehnat munosabatlari haqida ko‘plab g‘oyalarni ilgari surdilar. Ayniqsa, bu borada arab sotsiologi, faylasuf va iqtisodchi mutafakkir Ibn Xaldunning fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, aynan mehnat va mehnat munosabatlari natijasida sivilizatsiyalar vujudga keladi. Albatta, Sharq faylasuflari bu boradagi g‘oyalarini Qur’oni Karim va Hadisi shariflarga tayangan holda ilgari surganlar [16. B. 15]. Islomdagi mehnat va mehnat munosabatlari masalasi mustaqil falsafiy-ijtimoiy tadqiqot obyektidir.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mehnat – inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat moddiy boyliklar yaratish vositasi, balki shaxsning ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi o‘rni va o‘zini anglashining asosiy shartidir. Falsafiy nuqtayi nazardan, mehnat – inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayoni, u orqali inson tabiatni o‘zgartiradi va o‘zini ham takomillashtiradi. Mehnat inson tabiati, axloqi va madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Mehnatga bo‘lgan munosabat tarixan turli falsafiy maktablarda har xil tushuntirilgan: antik davr mutafakkirlari (Aflotun, Arastu) mehnatni jismoniy mehnat va aqliy mehnatga ajratgan. Mehnat jamiyatdagi ijtimoiy rollarga bog‘liq tarzda talqin etilgan. Qadimgi Sharqda (Konfutsiy, Lao Szi) mehnat axloq va tabiat bilan uyg‘unlik asosida baholangan bo‘lsa, islom falsafasida mehnat halol rizq manbai, ibodatning bir shakli sifatida talqin qilingan. Mehnatga falsafiy yondashuv insonning jamiyatdagi mavqeyini, shaxsiy kamolotini va umumiy taraqqiyotga qo‘shadigan hissasini chuqur anglashga yordam beradi. Uning ma’naviy-axloqiy qimmati, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishdagi roli bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda texnologik taraqqiyot, avtomatlashtirish va mehnat shakllarining o‘zgarishi tufayli mehnatning falsafiy tahlili yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Mehnat faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki insonning shaxsiy o‘sishi, jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi institut sifatida qaralishi kerak. Mehnat inson va jamiyat taraqqiyotida asosiy omil bo‘lib, uning falsafiy tahlili fanlararo yondashuvni, tarixiy va madaniy kontekst bilan aloqadorlikda qarashni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. *Пшизова Е.Н.* Труд как определяющая форма жизнедеятельности личности и общества // Вестник Адыгейского государственного университета. – 2005. – № 3. – С. 11–17.

2. *Пржиленская Ю.Г.* Понятие труда в социально-философском дискурсе XIX–XX вв //Философская мысль. – 2021. – №4. – С.55–65. [Электронный ресурс]. URL: https:// nbpublish. com/library _read_ article. php? id=33988 (Дата обращения: 01.01.2024)

3. Труд. Большой современный толковый словарь русского языка. [Электронный ресурс]. URL: https://slovar.cc/rus/tolk/117926.html (Дата обращения: 12.01.2024)

4. *Назаров Қ.* Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Toshkent: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2022. – 919 б.

5. Lao Szi. Tao Te Ching. The Complete “Tao Te Ching” translated by Gia-Fu Feng and Jane English Vintage Books, 1989. [Online]. URL: https://terebess.hu/english/tao/gia.html?utm_source=chatgpt.com#Kap03 (Date of Access: 18.10.2024)

6. *Поляков А.Н.* Конфуцианство как базис китайского идеального менеджмента // Management: журнал. – 2020. –Т. 4(56). – С. 66–72.

7. *Ткачева Т.О*. Конфуцианство в странах восточной азии: исторический выбор и социальная практика (вторая половина XX в. – начало XXI в.) Автореф. дисс… канд. ист. наук. – Краснодар, 2009. – 30 с.

8. Plato. The Republik. Translated by Benjamin Jowett. [Online] URL: https://classics.mit.edu/ Plato/republic. html?utm_source=chatgpt.com (Date of Access: 18.10.2024).

9. *Туйцын Ю.В.* Социальные функции труда в философии Аристотеля. Вестник МГПУ – Серия: «Философские науки» 2017. 73-81 с. [Электронный ресурс]. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnye-funktsii-truda-v-filosofii-aristotelya (Дата обращения: 02.01.2024).

10. Aristotle's Politics Books I. III. IV. (VIL). London: Printed by Spottiswoode and co., New-Street Square and Parliament street. 1877. – 354 p.

11. *Алексеев О.А., Мухметлатыпов Ф.У*. Социоэкономическая модель труда и предпринимательства: –Уфа: РИО БашГУ, 2005. – 278 с.

12. Marcus Tullius Cicero. De Officiis. Translator: Walter Mille. Lease date: September 29, 2014 [eBook #47001]. Most recently updated: October 24, 2024. [Online] URL: https://www.gutenberg.org/ cache/ epub/47001/pg47001-images.html (Date of Access: 19.10.2024).

13. *Nazarov Q.*, *Qarshiboyev M., Umarov B., Xolbekov A*. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021. – 816 b.

14. Avesto. Yasht kitobi. /M.Ishaqov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. –130 b.

15. *Yusuf Qarzoviy.* Malamih al-mujtama' al-muslim allazi nunshiduhu. – Qohira: Maktabat al-vahba, 2012. – 392 p.

16. *Sobirov D.A.* Islom ta'limotida mehnat va mehnatga munosabat muammolari. // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar. – 2023. – № 7 (75). – B. 13–21.

17. Confucius, The Analects, Book I, Chapter 5 [Online]. URL: https://bookroo.com/quotes/confuciuss. (Date of Access:18.10.2024)

18. Plato. Laws. Produced by Sue Asscher, and David Widger. eBook. Release Date: October 29, 2008 [EBook #1750] Last Updated: January 15, 2013 [Online]. URL: *www.gutenberg.org* (Date of Access: 19.10.2024)

19. Plato, The Republic, Book II, 369b–372e; Book IV, 433a–434c.[Internet manba]: URL: https://classics.mit.edu/Plato/republic.html (Date of Access: 19.10.2024)

20. *Шамсудинов Р.А*. (2024) Понятие труда с точки зрения философии [The concept of labor from the point of view of philosophy]. *Молодой ученый*. 22 (521). Pp. 625-628.

THE PHILOSOPHICAL DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF LABOR

Dilmurod A. Sobirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 5-16.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *labor, human, concept of labor, philosophy of labor, philosophical thought, labor in Greek philosophy, labor in Eastern philosophy, human and labor relations.*

The article is devoted to the study of the philosophical aspects of labor from historical, economic and cultural perspectives. The article is aimed at studying the historical factors that influenced the development of the concept of labor and its social functions. Philosophical analysis includes not only the economic aspects of labor, but also its moral, spiritual and psychological aspects, and at the same time helps to study the impact of labor on modern social and economic systems.

Purpose – The main goal of writing the article is to study the historical development of the definitions and essence of the concept of labor. During the study, it was determined that labor evolved in ac-

cordance with historical and social conditions, that is, there were gradual changes in its content and essence. This, naturally, led to the formation of different definitions and contents of the concept of labor.

In this regard, paying attention to the philosophical analysis of the phenomenon of labor creates the need to study it not only as an economic or social phenomenon, but also as a process that includes meaningful, conscious and spiritual aspects of human activity. The philosophical approach allows for a deep understanding of labor and labor relations, to determine their ontological, axiological and epistemological foundations, and to assess the prospects for future development. In this study, special attention was paid to highlighting the philosophical content of labor, understanding its role in human development and the place in the formation of social consciousness.

Design/methodology/approach. In analyzing the problem posed in the article, the views of ancient Greek philosophers - Socrates and Aristotle, as well as Eastern thinkers - Confucius (Kun Zi) and Lao Zi were widely used. Based on their philosophical views on labor, relevant scientific conclusions were drawn. At the same time, religious and philosophical sources were analytically studied, including the Zoroastrian doctrine and the concept of labor expressed in its holy book “Avesta”, the Islamic religious beliefs and the approaches to labor in the verses of the “Holy Quran”. The research process was based on the main methodological principles of scientific knowledge - the logical and historicist approach, the methods of analysis (analysis) and generalization (synthesis), as well as the method of comparative analysis and the principle of objectivity.

Summary. As a conclusion of our research, we can say that labor is an integral part of human life, it is not only a means of creating material wealth, but also the main condition for the spiritual development of a person, his place in society and self-awareness. From a philosophical point of view, labor is considered as a process of interaction between man and nature, through which man changes nature and improves himself. Labor has a direct impact on human nature, morality and culture. It serves his spiritual growth.

References:

1. Pshizova, E.N. (2005) Trud kak opredelyayushchaya forma zhiznedeyatel’nosti lichnosti i obshchestva [Labor as a defining form of life activity of the individual and society]. *Vestnik Adygejskogo gosudarstvennogo universiteta*. No 3. Pp. 11-17.

2. Przhilenskaya, Yu.G. (2021) Ponyatie truda v social’no-filosofskom diskurse XIX–XX vv [The concept of labor in the socio-philosophical discourse of the IX–XX centuries]. *Filosofskaya mysl’*. No 4. Pp.55-65. [Online]. URL: https:// nbpublish. com/library _read_ article. php? id=33988 (Date of Access: 01.01.2024)

3. Trud. Bol’shoj sovremennyj tolkovyj slovar’ russkogo yazyka [Large modern explanatory dictionary of the Russian language. (electronic dictionary)]. [Online]. URL: https://slovar.cc/rus/tolk/117926.html (Date of Access: 12.01.2025)

4. Nazarov, Қ. (2022) Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. [Encyclopedia of World Philosophy]. Book 1.Tashkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti.

5. Lao Tzu.,The Tao Te Ching. Translated by Gia-Fu Feng (馮家福 Feng Jia-fu, 1919-1985) and Jane English (1942). Vintage Books, 1989. [Online] URL: https://terebess.hu/english/tao/gia.html?utm_ source=-chatgpt. com#Kap03 (Date of Access: 18.10.2024).

6. Polyakov, A.N. (2020) Konfucianstvo kak bazis kitajskogo ideal’nogo menedzhmenta [Confucianism as the basis of Chinese ideal management]. Management: jurnal. Vol. T. 4(56). Pp. 66-72.

7. Tkacheva, T.O. (2009) Konfucianstvo v stranah vostochnoj azii: istoricheskij vybor i social’naya praktika (vtoraya polovina XX v. – nachalo XXI v.) [Confucianism in East Asian Countries: Historical Choice and Social Practice (second half of the 20th century - beginning of the 20th century)]. Abstract of Dissertation for the Candidate of P historical Sciences. Krasnodar.

8. Plato. The Republik. Translated by Benjamin Jowett. [Online] URL: https://classics.mit.edu/Plato/republic.html?utm_source=chatgpt.com (Date of Access: 18.10.2024).

9. Tujcyn,Yu.V. (2017) Social’nye funkcii truda v filosofii Aristotelya. [Social functions of labor in the philosophy of Aristotle]. Vestnik MGPU – Seriya: «Filosofskie nauki». Pp. 73-81 [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/ sotsialnye-funktsii-truda-v-filosofii-aristotelya (Date of Access: 02.01.2024).

10. (1877) Aristotle’s Politics Books I. III. IV. (VIL). London: Printed by Spottiswoode and co., New-Street Square and Parliament street.

11. Alekseev, O.A., Muhmetlatypov, F.U. (2005) Socioekonomicheskaya model' truda i predprinimatel'stva [Socioeconomic model of labor and entrepreneurship]. Ufa: RIO BashGU.

12. Marcus Tullius Cicero. De Officiis. Translator: Walter Mille. Lease date: September 29, 2014 [eBook #47001]. Most recently updated: October 24, 2024. (Online) URL: https://www.gutenberg.org/cache/epub/47001/pg47001-images.html (Date of Access: 19.10.2024).

13. Nazarov, Q., Qarshiboyev M. (et.al.) (2021) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati ati [Glossary of basic spiritual concepts]. Tashkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.

14. (2001) Avesto. Yasht kitobi [Avesta. Book of Yasht]. Tashkent: Sharq.

15. Yusuf Qarzoviy. (2012) Malamih al-mujtama' al-muslim allazi nunshiduhu. [Features of the Muslim society we seek]. Cairo: Maktabat al-vahba.

16. Sobirov, D.A. (2023) Islom ta'limotida mehnat va mehnatga munosabat muammolari.[Problems of work and attitude towards work in Islamic teachings]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar*. No 7(75). Pp. 13-21.

17. *Confucius, The Analects, Book I, Chapter 5* [Online] URL: https://bookroo.com/quotes/confuciuss. (Date of Access: 18.10.2024)

18. Plato. Laws. Produced by Sue Asscher, and David Widger. eBook. Release Date: October 29, 2008 [EBook #1750] Last Updated: January 15, 2013 [Online] URL: www.gutenberg.org (Date of Access: 19.10.2024)

19. Plato, The Republic, Book II, 369b–372e; Book IV, 433a–434c.[Online]: URL: https://classics.mit.edu/Plato/republic.html (Date of Access: 19.10.2024)

20. Shamsudinov, R.A.(2024) Ponyatie truda s tochki zreniya filosofii // Molodoj uchenyj. – 2024. – №22 (521). – S. 625–628.

Muallif haqida ma'lumot:

SOBIROV Dilmurod Abdulxakimovich – Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: smart_boy_and@mail.ru